

**BYUDJET DAROMADLARIGA YASHIRIN IQTISODIYOTNING  
TA'SIRINI O'LGHASH USLUBIYATLARI**

*Davlatov Dilshodjon G`ulomjon o`g`li*

***Annotatsiya:** Ko'plab rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun turli xil choralar qo'llaniladi. Masalan, Skandinaviyada naqd puldan voz kechish va elektron to'lov tizimlarini keng joriy etish orqali iqtisodiyotni rasmiylashtirishga erishilgan. Shu bilan birga, Germaniyada soliqlarni kamaytirish va ish beruvchilarga rag'batlar berish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga yordam beruvchi strategiyalar qo'llanilmoqda.*

*Respublikamiz iqtisodida yashirin iqtisodiyot salmog'ini soliq mexanizmlari orqali qisqartirish haqida yoritilgan. Kerakli tavsiya va xulosalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** yashirin iqtisodiyot, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, ma'murchilik, javobgarlik choralari, soliqqa oid huquqbuzarliklar, korrupsiya, yashirin iqtisodiyotning farqlanish mezonlari, rivojlanishi hamda qisqartirish omillari.*

Yashirin iqtisodiyot miqyosini o'lchash murakkab masala bo'lib, uning pinhoniyl xususiyatlari va har qanday o'lchashga qochishi bilan bog'liq. Biroq, yashirin faoliyatning hajmini baholash iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilish va davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirish uchun zarurdir. Rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning hajmini aniqlashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

- **Indikatorlar uslubi:** Ushbu uslub to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita (egri) uslublarga bo'linadi. To'g'ridan-to'g'ri uslublar maxsus kuzatuvlar, so'rovlar, soliq to'lovchilar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Bilvosita uslublar bandlik ko'rsatkichlari, monetar uslublarni o'z ichiga oladi.

- **Yengil modellashtirish uslubi:** Bu uslubda yashirin iqtisodiyotni aniqlovchi ko'rsatkichlar tanlanib, nisbiy hajmlar hisoblanadi.

- **Tarkibiy uslub:** Bu uslubda turli ishlab chiqarish tarmoqlarida yashirin iqtisodiyoti haqida ma'lumotlar va axborotlardan foydalaniladi.
- **Aralash uslub:** Yashirin iqtisodiyot hajmlariga bog'liq o'lchovlar, determinant va indikatorlar asosida modellar yaratiladi.
- **Rasmiy statistika ko'rsatkichlari:** Yashirin iqtisodiyot va uning alohida elementlarini baholashda qayta hisoblashlar asosida rasmiy statistika ko'rsatkichlari ishlatiladi.


Yashirin xo'jalik aylanmasi, tabiiyki, rasmiy statistikaga kiritilmasligi tufayli, yashirin iqtisodiyot o'lchamlarini baholash muammosi dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqsadlar uchun quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

**Monetar usul:** Bu usulda yashirin hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipoteza asosida quriladi. Naqd pul massasi harakatining dinamikasi yashirin iqtisodiyot hajmini baholashga imkon beradi.

- **Xarajatlar va daromadlar balanslari usuli:** Bu usulda deklaratsiya qilinadigan daromadlar va xarajatlar summasi, tohamdarlar va xizmatlar iste'molining real hajmlari taqqoslanadi.

- **Bandlikni tahlil qilish:** Uzoq muddat davomida ro'yxatga olinmagan ishsizlikning yuqori darajasi yashirin sektorda bandlik uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Zamonaviy iqtisodchilar tomonidan yashirin iqtisodiyotni o'lchashning ko'pchilik usullari ishlab chiqilgan. Ularni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lish mumkin. 5-rasmda ko'rsatilganidek, har bir usul o'zining aniq imkoniyatlari va cheklovlariga ega.



**5.-rasm. Yashirin iqtisodiyotni o'chash usullari**

*Manba:* (Abdulqosimov H.P., 2020)

Yashirin iqtisodiyot miqyosini o'lchashda mikro va makro darajadagi usullar qo'llaniladi. Ushbu usullar turli tahlil va metodologiyalarga asoslanadi va ular o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarning darajasiga qarab farqlanadi.

Mikro darajadagi usullar yashirin iqtisodiyotni o'lchashda bevosita usullarni, ya'ni so'rovlar, ochiq tekshiruvlar va iqtisodiy-huquqiy tahlilning maxsus usullarini o'z ichiga oladi.

- So'rovlar So'rovlar yordamida amalga oshiriladigan tadqiqotlar ijtimoiy izlanishlar bilan birga o'tkaziladi. Masalan, anonim intervyu usulida respondentlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Yashirin faoliyatchilar – noqonuniy iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi va buni tan olishga tayyor bo'lgan shaxslar.

- Bevosita kuzatuvchilar – yashirin muhitda bo'lib, uni ichidan kuzatayotgan, ammo noqonuniy bitimlarda qatnashmaydigan shaxslar.

- Tashqi kuzatuvchilar – yashirin iqtisodiyotni baholovchi va bu faoliyatga qo'shilmagan yoki qo'shilganini tan olmaydigan shaxslar.

- Jabrlanuvchilar – yashirin iqtisodiyot va korrupsiyadan zarar ko‘rgan, lekin yashirin faoliyatga bevosita aloqasi bo‘lmagan shaxslar.

So‘rov natijalari, ayniqsa, "yashirin faoliyatchilar" va "bevosita kuzatuvchilar"dan olingan ma'lumotlar ishonchli hisoblanadi. Biroq, boshqa guruhlarining ma'lumotlari ham muhim ahamiyatga ega.

Ochiq tekshiruv usuli Ochiq tekshiruvlar orqali soliq, bojxona, bank va boshqa sohalarda qonunbuzarliklarni aniqlash va oldini olish maqsadida tekshiruvlar o‘tkaziladi. Masalan, soliq tekshiruvi yordamida olingan ma'lumotlar yashirin iqtisodiyot hajmini o‘lchashda qo‘llaniladi. Ochiq tekshirishlar, shuningdek, yong‘in xavfsizligi va sanitariya me‘yorlariga rioya qilishni tekshirishda ham ishlatiladi.

Iqtisodiy-huquqiy tahlilning maxsus usullari Yashirin iqtisodiyotni o‘lchashda iqtisodiy-huquqiy tahlilning maxsus usullarini qo‘llash zarur. Bu usullar iqtisodiy va buxgalterlik ko‘nikmalarini yuridik amaliyotda samarali qo‘llash imkonini beradi. Yashirin iqtisodiyotning miqyosini aniq baholash uchun iqtisodiy-huquqiy tahlillar muhim rol o‘ynaydi.

Makro darajadagi usullar yashirin iqtisodiyot hajmini o‘lchash uchun bilvosita, ya’ni rasmiy statistika va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslangan usullarni o‘z ichiga oladi. Bu usullar asosan soliq va moliya organlarining ma'lumotlariga, shuningdek, umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Makro darajadagi usullar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Bandlik ko‘rsatkichlari usuli ("italyancha" usul) Bu usulda ro‘yxatga olinmagan ishsizlik darajasi, yashirin sektorda bandlikni baholash uchun ishlatiladi.

Monetar usul Naqd pul massasi harakatining dinamikasi orqali yashirin iqtisodiyot hajmi hisoblanadi. Ushbu usulda naqd mablag‘larning harakati o‘rganiladi.

Texnologik koeffitsiyentlar usuli Xarajatlarning texnologik koeffitsiyentlari yordamida mahsulot ishlab chiqarish hajmi haqidagi ma'lumotlar olinadi.

Ekspert usuli Yashirin iqtisodiyot hajmini baholashda ekspert baholari va tahlillari ishlatiladi. Bu usulda iqtisodchilar va mutaxassislar fikrlari asosiy omil

bo'lib xizmat qiladi.

Tarkibiy usul Bu usulda turli ishlab chiqarish tarmoqlaridagi yashirin iqtisodiyot hajmlari haqida ma'lumotlar yig'iladi va tahlil qilinadi.

Yashirin iqtisodiyotni o'lchashda yuqoridagi usullarni qo'llash, iqtisodiyotdagi yashirin faoliyatlarni aniqlash va tahlil qilish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Bu usullar har bir mamlakatda yashirin iqtisodiyotni o'lchashda o'ziga xos yondashuvlarni yaratadi. (Abdulqosimov H.P., 2020)



**6-rasm. Yashirin iqtisodiyotni o'lchashning makrousullar**

*Manba:* (Abdulqosimov H.P., 2020)

Jahon amaliyotida yashirin iqtisodiyotning miqdorini baholashda turli usullar qo'llaniladi, lekin bularning hech biri yagona to'g'ri usul deb hisoblanmaydi. Har bir mamlakatning o'ziga xosligi, statistik materiallarda kamchiliklarning mavjudligi va usullarni birgalikda qo'llash zarurati mavjud. Shuning uchun turli metodlar kombinatsiyasidan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotni ob'ektiv baholashning aniq yo'nalishlari yaratiladi. Yashirin iqtisodiyotning miqyosi ko'pincha iqtisodiy tizim turiga bog'liq bo'ladi, ammo bu bog'liqlik bir xil xarakterga ega emas. Masalan, to'liq davlatlashtirilgan yoki davlat tasarrufiga o'tgan iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotning mavjudligi ehtimoli past, chunki davlat bunday faoliyatni taqiqlaydi. Aksincha, mutlaq davlat tasarrufidan

chiqarilgan iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotning mavjudligi ehtimoli ham nisbatan yuqori bo'ladi, chunki bunday tizimda nazorat kam va "soyada yashirinish" uchun imkoniyatlar mavjud. Yashirin iqtisodiyot markazlashtirilgan va demarkazlashtirilgan xo'jaliklar orasidagi "chegara hududlari"da kengayib boradi. Markazlashtirilgan iqtisodiyotda nazorat qilish imkoniyatlari kamayib boradi, demarkazlashtirilgan bozor xo'jaliklarida esa samarali bo'lmagan nazorat choralari ko'payishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar orasida yashirin iqtisodiyotning miqyosi farq qiladi:

G'arbiy Yevropaning ba'zi mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot eng katta bo'lsa, AQShda o'rtacha miqdorda, Yaponiya va Shveysariya kabi mamlakatlarda esa minimal bo'ladi. Bu farqni Yevropadagi ko'plab aralash iqtisodiyotning yuqori darajada davlatlashtirilganligi, AQShdagi individualizmning salbiy oqibatlari va Yaponiyadagi "jamiyat rizoligi" muhitining o'zaro ta'siri bilan izohlash mumkin. Yaponiyada hatto gangsterlar ham narkobiznes, reket va fohishabozlikdan olingan daromadlaridan soliq to'laydi. Dunyoda har yili yashirin sektorda kamida 8 trln. AQSh dollari miqdorida qo'shilgan qiymat yaratiladi. Bular rasmiy buxgalteriya hisobotlari, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar statistikasida o'z aksini topmaydi. Shunday qilib, global yashirin iqtisodiyot miqyosi, ayniqsa, dunyoning eng yirik iqtisodiyotlaridan biri bo'lgan AQSh iqtisodiyoti bilan taqqoslanishi mumkin. 1990-yillarning ikkinchi yarmida yashirin iqtisodiyotning o'rtacha o'lchami rivojlangan mamlakatlarda YaIMning 12 foizini, o'tish davridagi iqtisodiyoti bo'lgan mamlakatlarda 23 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 39 foizini tashkil etgan.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot miqyosi o'sib bormoqda. 1998-yilda Gretsiya yashirin sektorning eng katta ulushiga ega bo'lgan, ularning rasmiy YaIM'ning 29 foizini tashkil etgan. Boshqa katta yashirin sektorlar Italiya (27.8%), Ispaniya (23.4%) va Belgiya (23.4%) da mavjud bo'lgan. O'rtacha ko'rsatkichlarga ega mamlakatlar qatorida Irlandiya, Kanada, Fransiya va Germaniya (14,9% dan 16,3% gacha) bor. Yashirin iqtisodiyotning eng kam miqdori Avstriya (9,1%), AQSh (8,9%) va Shveysariyada (8,0%) qayd etilgan.

Shunday qilib, nisbatan farovon mamlakatlarda ham yashirin iqtisodiyotning mutlaq hajmi katta ko'rsatkichlarga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdulqosimov X.P. Muminov N.G. (2020) Yashirin Iqtisodiyot. O'quv qo'llanma.
2. Abdulqosimov X.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi.O'quv qo'llanma.- T.:Akademiya (2012)
3. Abdulqosimov X.P.,Abdulqosimov M.X Iqtisodiy xavsizlik: nazariya va amaliyot.O'quv qo'llanma-T.:Noshirlik yog'dusi, (2019)
4. Alkhdour R. ESTIMATING THE SHADOW ECONOMY IN JORDAN.Colorado- (2011)
5. Berdiyarov R.T (2021) Improving Ways to Increase the Attitude of the Investment Environmen 15b
6. Дадалко В. А., Румянцева Е. Е., Пешко Д. А.Теневая экономика и кризис власти: проблемы и пути решения. Минск, (2000). Гл. 2.
7. Enste D, Schneider F., Shadow economies around the world size,causes, and consiquenses. USA- (2000)